

Sodiqjon Ro'zmatov

CHDPU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Hikmat Hikmatov

CHDPU adabiyotshinoslik kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Mavlono Mushfiqiy mashhur tojik shoirlaridan bo'lib yaxshi qasidalari va asarlari juda mashhur. U klassik adabiyot janrlarida ko'p asarlar yaratgan bo'lib, uning asarlari kulliyot shaklida jamlangan. Hozirgi kunda uning g'azallari talabalar orasida sevib o'qiladi. Mushfiqiy ijodida g'azal janri asosiy urinni egallaydi. Mushfiqiy ijodiyotida ishq mavzusi muhim urinni egallaydi. Tojik xalqi o'zining mahjub shoiri Abdurahmon Mushfiqiy va uning ijodiyotiga mehru muhabbat paydo qilgan. Mushfiqiy xushxulq shaxs va hazl mutoibani yaxshi ko'radigan inson edi.*

Kalid so'zlar: *kulliyot, klassik, sharoit, peshqadam, munozara, kitobdor.*

Abdurahmon Mushfiqiy 1525-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan. Asl vatani Marv bo'lib, ota bobolari keyinchalik Buxoroga ko'chib kelishgan. Shoirming otasi o'rtahol kishilardan bo'lib farzandi tarbiyasi uchun ko'p harakat qilgan. Ammo erta bu olamni tark etgan va ko'p o'tmay onasi ham bu dunyoni tark etgan. Shu sababdan u yoshligidan qiyinchilikda voyaga etgan. Keyinchalik Mushfiqiy Buxorolik hunarmand kishi qulida ishlaydi. U kishi Mushfiqiyga ko'p yordam ko'rsatadi, tahsil olishi uchun sharoitlar yaratib beradi. Abdurahmon Mushfiqiy boshlang'ich ta'limni olgach o'qishni madrasada davom etdiradi. U madrasada peshqadam shogirdlardan hisoblanar edi. Maxsusan, u hisob ilmi, nujum, hikmat, hayot, raml va kalomni yaxshi bilar edi va bahsu munozaralarda g'olib chiqar edi. Abdurahmon Mushfiqiy yoshligidan she'r aytishga rag'bati kuchli edi. U ko'p vaqtini she'r san'atini o'rganishga sarflar edi. Abdurahmon Mushfiqiy 1564-yilda Samarqandga boradi va Sulton Said darborida kitobdorlik vazifani ado

etadi. Kitobdorlik maoshi shoirning ro'zg'origa yetmas edi. Sulton Said o'limidan keyin shoirning ahvoli juda og'rlashadi. Bu qashshoqlikdan qutulish uchun Hinduston safariga yul oladi. Movarounnahrda bir gap tarqalgan edi, Hinduston shohi Akbarshoh donishmand, she'r san'atini yaxshi kuradigan kishi edi. Mushfiqiy 1577-yilda Hindustonga boradi va uni Akbarshoh qabul qiladi. Ammo bir yildan keyin ya'ni 1578-yilda vataniga qaytadi.

Mushfiqiy bir 'gazalida ishora qiladi: " Yoru vatan azizdir, undan judo bo'lish mushkil ammo hayot majbur qildi va begona yurtga safar qildim, hayot tarzim yaxshilansin deb ammo murodimga yetmadim". Mushfiqiy Akbarshoh haqida eshitgan barcha yaxshi xislatlar yolg'on bo'lib chiqdi, u yerda qalam ahlining izzat hurmati yuq ekan. Shoir Hinduston safaridan keyin Abdulloxon darboriga yul oladi. U qisqa muddat ichida u yerda obr'o e'tiborga ega bo'ladi. Hattoki malikushshuaro martabasiga yetadi, iqtisodiy hayoti yaxshilandi ammo shu ayyomda Mushfiqiy 60-yoshdan oshgan edi. Abdurahmon Mushfiqiy 1588-yilda bu olamni tark etadi. U g'azal yozish davomida, Hasan Dehlaviy va Kamol Hujandiyga ergashgan. Bu borada shoirning o'zi shunday ishora qiladi:

Nazmi tu, Mushfiqiy, ba kamoli Hasan rasid,

Tu guftaiy, ki payravi piri Hujandiyam.

Bu g'azalning mazmuni shunday: Sening nazming Hasan Dehlavining darajasiga yetdi, sen aytgansan, men ergashgan hujandiy piriman. Mushfiqiyning g'azallari sodda uslubda bo'lib, shoir unda xalq ta'birlarini mohirona ishlata olgan. Tojik adibi va donishmandi- ustoz Sadridin Ayni Mushfiy ijodiga baho berib, uning ba'zi g'azallarini tojik klassik adabiyotida yuqori darajadagi she'r deb qayd etgan. Shu jumladan quyidagi g'azali haqida:

Dar g'amash dilro figoru xasta meguyem mo,

Ahli dardem, in suxanro donista meguyem mo.

Ustoz Ayni yozadi:

" Boshidan oxirigacha bu unga uxshash yaxshi, latif g'azalni uchratish juda qiyin" .

Mushfiqiy ruboiy aytishda ham juda yaxshi edi, uning ruboiyalari g'azaliyot

devonida yozib qoldirilgan. U ruboiylarida xulq odob, zamon tanqidi, ishq muhabbat, tabiat tasviri va boshqalarani aks etirgan.

Quyidagi ruboiysida tabiatning o'zgarishi va qishning yaqinlashayotgani haqida gap boradi:

Avroqi bahor raft barbod hama,
Ovora shud az xazoni bedod hama.
Gul budu bunafsha budu sunbul dar bog',
Az noxushii barf baraftod hama.

Shoir bu g'azali orqali keksalikning yaqinlashib kelatyotgani va yoshlikning hamma xursandchiliklar sochining oqarishi kabi xuddiki sunbulu gulga uxshash edi deb aytib o'tadi. Mushfiqiy ijodiyotida g'azaldan keyin qasida turar edi. Mushfiqiyning qasidasi shakl jihatdan o'tgan adiblar qasidasiga uxshash edi. Shuningdek shoirning qasidasi 16-asr O'rta Osiyo tarixini o'rganishga juda katta yordam beradi.

Mushfiqiyning mutoibalari juda ko'p bo'lib, qit'a, masnaviy, g'azal, qasida janrlarida aytib o'tilgan.

REFERENCES

1. БСЭ 3" Мушфиқӣ Абдурахмон 1969-1978.
2. O'z ME, Birinchi jild. Toshkent, 2000- yil.
3. "Karta Душанбе", Qaraldi: 19-sentyabr 2013-yilda.